

Investitsiya dasturlarini shakllantirish va moliyalashtirishning yangi tartibi muhokama qilindi



Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2018-yil 17-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlarini shakllantirish va moliyalashtirish bo'yicha joriy etilgan yangi tartib asosida ishlarni tashkil etish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va uning o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisi, Toshkent shahri va viloyatlar hokimlari, tegishli vazirlik va idoralar rahbarlari ishtirok etdi.

Mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, yirik infratuzilma obyektlari va korxonalar barpo etish jarayoniga chet el investitsiyalari izchil jalb qilinmoqda.

Davlatimiz rahbari yuqori iqtisodiy o'sishga erishish va kuchli ijtimoiy himoyani ta'minlashda investitsiyalarning muhimligini qayd etar ekan, shu paytgacha bu boradagi ishlar pala-partish bajarib kelinganini tanqid ostiga oldi.

Ilgari ushbu soha rahbarlari yuqori raqamlar ortidan quvib, investitsiyalarni jalb etish va o'zlashtirish bo'yicha ko'rsatkichlarni oshirib ko'rsatishni kasb qilib olgan edi. Buning oqibatida hokimliklar va tarmoq rahbarlari ushbu "yuk"ni bajarish uchun moliyalashtirish manbasi kafolatlanmagan va tashabbuskori aniq bo'lmagan, hududlar va tarmoqlar rivojlanishiga mos kelmaydigan samarasiz loyihalarni Investitsiya dasturlariga kiritishga majbur bo'lar edi.

Masalan, 2012-2017-yillar davomida "O'zbekenergo" aksiyadorlik jamiyati tomonidan umumiy qiymati 3,3 milliard AQSh dollari bo'lgan 14 ta loyiha investitsiya dasturlariga kiritilgan. Keyinchalik ularning barchasi maqsadga muvofiq emas deb topilgan va hukumat qarorlari bilan to'xtatilgan. Eng achinarlisi, mazkur loyihalar hujjatlarini tayyorlashga 185 million AQSh dollari sarflangan.

Investitsiya dasturlarini shakllantirish va loyihalarni ekspertizadan o'tkazish borasida ham qator muammolar bor. Bu jarayon 15 yil avval qabul qilingan qarorlarda belgilangan mezon va tartiblar asosida amalga oshirib kelingan. Jumladan, loyihaning texnik iqtisodiy asoslari, biznes rejasi va tender hujjatlari ishlab chiqilgandan so'ng vakolatli organlar bilan takror va takror kelishilishi oqibatida uning ekspertizasi belgilangan 15 kun o'rniga 6 oygacha cho'zilish holatlariga ko'p marotaba yo'l qo'yilgan. Bu investitsiya loyihasining qimmatlashishi va rentabelligi pasayishiga olib kelgan.

Ma'lumki, investitsiya dasturlariga iqtisodiy asoslangan, loyiha-smeta hujjatlari tayyor bo'lgan loyihalar kiritilishi zarur. Lekin ilgari bunday hujjatlar loyiha investitsiya dasturiga kiritilgandan so'ng tayyorlab kelingan. Oqibatda loyihaning dastlabki narxi va tasdiqlangan qiymati o'rtasida ba'zi hollarda hatto 80 foizgacha tafovut yuzaga kelgan. Bu byudjet mablag'lari sarfi asossiz ravishda oshib ketishiga sabab bo'lgan.

Loyihalar puxta hisob-kitob qilinmagani, ularni amalga oshirishga investorlarning o'z mablag'lari jalb etilmagani oqibatida ko'plab korxonalar bankrot bo'lgan. Ularni sog'lomlashtirish vazifasi zimmasiga yuklangan tijorat banklari ham katta zararlar ko'rgan. Shu bois joriy yildan boshlab bankrot korxonalarni banklar balansiga berish amaliyotiga chek qo'yildi.

Yuzaki o'tkazilgan iqtisodiy tahlil oqibatida loyihalar foydalanishga qabul qilinganidan keyin ham o'zini oqlamagan – xomashyo yo'qligi, energiya va gaz bilan ta'minlanmagani, iqtisodiy jihatdan samarasiz bo'lgani sababli mahsulot ishlab chiqarish o'zlashtirilmay qolgan.

Yana bir kamchilik: o'z vaqtida bajarilmagani yoki ijrosi chala bo'lgani uchun ayrim loyihalar yildan yilga, dasturdan dasturga o'tib kelgan. Masalan, Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazini laboratoriya bilan jihozlash loyihasi dastlab 2015-yilda, keyinchalik 2016- va 2017-yillarda investitsiya dasturlariga takroran kiritilgan.

Prezidentimizning 2017-yil 18-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlarini shakllantirish va moliyalashtirishning yangi tartibini joriy etish to'g'risida"gi qarori yuqoridagi kabi tahlillar natijasida qabul qilindi. Qarorga muvofiq, mamlakatimizda tarmoq va hududiy loyihalarni amalga oshirish bo'yicha mutlaqo yangi tizim yo'lga qo'yilmoqda.

Davlatimiz rahbari bu boradagi ishlarni uch bosqichda amalga oshirish zarurligini ta'kidladi.

Birinchi bosqichda Rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqish va tasdiqlash kerak. Ushbu Konsepsiya tarmoq, hududiy va maqsadli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'nalishlarini amalga oshirish bo'yicha strategik vazifalarni o'z ichiga olgan hujjat bo'ladi.

Ikkinchi bosqichda Rivojlanish konsepsiyasi asosida maqsadi va moliyalashtirish manbalari aniq bo'lgan 3 yillik, ya'ni 2019-2021 yillarga mo'ljallangan loyihalar portfeli shakllantiriladi. Ushbu loyihalar Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, Iqtisodiyot va Moliya vazirliklari bilan kelishilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligida ekspertizadan o'tkaziladi. Har bir loyihani amalga oshirish bo'yicha batafsil kalendar rejasi ishlab chiqiladi.

Uchinchi bosqichda tasdiqlangan 3 yillik loyihalar portfeli asosida Rivojlanish davlat dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash talab etiladi.

Bundan buyon Rivojlanish davlat dasturlariga faqat dastlabki texnik-iqtisodiy asoslari va loyiha-smeta hujjatlari mavjud bo'lgan loyihalar kiritiladi, deya alohida ta'kidladi Shavkat Mirziyoyev.

Prezidentimizning joriy yil 8-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining davlat xaridlarini amalga oshirish, davlat dasturi doirasidagi hujjatlarni shakllantirish va amalga oshirish bo'yicha kompleks ekspertizaning samarali tizimini tashkil qilish to'g'risida"gi qarori sohaga oid yana bir muhim hujjat bo'ldi. Unga muvofiq, Loyiha boshqaruvi milliy agentligi huzurida Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi tashkil etildi. Endilikda loyiha, tender hujjatlari va import shartnomalari ushbu markazda ekspertizadan o'tkaziladi.

Yangi tartib bo'yicha ishlar davom etayotgani bois 2018-yilgi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish loyihalari, istisno tariqasida, Prezident tomonidan tasdiqlanadigan Investitsiya loyihalari ro'yxati asosida amalga oshiriladi.

Davlatimiz rahbari tajriba tariqasida Toshkent shahri, Toshkent va Samarqand viloyatlarida loyihalarni energiyatejamkor, zamonaviy qurilish va yengil konstruksiyali materiallardan foydalangan holda amalga oshirish orqali ularning qiymatini 20-30 foizga arzonlashtirish amaliyotini joriy etishni taklif qildi.

Iqtisod qilingan mablag'lar to'laligicha mazkur loyiha joylashadigan shahar yoki tuman ixtiyorida qoladi hamda ushbu hududning ijtimoiy va kommunal soha masalalarini hal etishga yo'naltiriladi, dedi Prezidentimiz.

Yig'ilishda investitsiya loyihalarini iqtisodiy, moliyaviy va texnologik asoslangan holda ishlab chiqishda loyiha institutlarining o'rniga alohida e'tibor qaratildi.

Amaldagi loyiha ishlarini bajarish qoidalari o'tgan asrning 60-70-yillarida ishlab chiqilgan bo'lib, zamonaviy talablarga mutlaqo javob bermaydi. Shu paytgacha xorijiy konsultantlarni jalb etgan holda birorta ham yangi loyiha instituti yaratilmagan. Hududlarda bugungi talablarga javob beradigan loyihalashtirish tashkilotlari yo'q.

Hozirda loyihalashtirish institutlarining asosiy maqsadi loyiha qiymatini baland qilib ko'rsatib, undan tegishli yuqori foizli foyda olish bo'lib qolgan. Bugun bularning barchasiga barham beradigan vaqt keldi, dedi Shavkat Mirziyoyev. "O'zInjining" loyihalashtirish tashkiloti iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarini loyihalashtirgani kabi, qolgan xo'jalik birlashmalarida ham huddi shunday mutasaddi yuqori malakali mutaxassislariga ega bo'lgan ixtisoslashgan loyiha institutlari bo'lishi kerak.

Ma'lumki, loyihani amalga oshirish guruhlariga to'lanadigan oylik xarajatlari loyihaning umumiy qiymatidan olinadi. Ya'ni ushbu guruhlar muayyan loyihani qanchalik kech ishga tushirsa, shuncha ko'p manfaat ko'radi. Bu esa, o'z navbatida, loyiha narxining sun'iy ravishda oshishiga olib keladi.

Yig'ilishda loyihalashtirish ishlarini takomillashtirish, yangi loyiha institutlarini tashkil etish, qurilish-loyiha hujjatlarini tayyorlash va ekspertiza qilishning mutlaqo yangicha mexanizmini ishlab chiqish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Ilgari qarz, kredit va grant mablag'larini jalb qilish va ulardan foydalanish borasidagi ishlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Xalqaro moliya institutlari, tashkilotlari va donor mamlakatlar bilan hamkorlik qilish, yirik va strategik muhim investitsiya loyihalarini amalga oshirish masalalari bo'yicha idoralararo kengash tomonidan tashkil etilardi. Bu vakolatli davlat organlarining mas'uliyati va tashabbuskorligini pasaytirib, ortiqcha byurokratik tartib-taomillar va xarajatlarga olib kelardi.

Prezidentimizning 2017-yil 20-dekabrda "Xalqaro va xorijiy moliya institutlari bilan hamkorlikning samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida davlat boshqaruvi organlarining yetakchi xalqaro va xorijiy moliya institutlari bilan hamkorlik qilish bo'yicha vakolatlari aniq belgilab qo'yildi. Barcha darajadagi hokimliklar ushbu davlat organlari bilan birgalikda ish olib boradi.

Bundan keyin Investitsiya dasturi kabi Rivojlanish davlat dasturiga ham puxta ishlanmagan, moliyaviy manbasi va egasi aniq bo'lmagan, faqatgina bitimlarda qolib ketadigan loyihalarni kiritish amaliyoti takrorlansa, tegishli rahbarlar qonun oldida javob beradi.

Yig'ilishda byudjet va investitsiya mablag'laridan oqilona foydalanish, moliyalashtirish bazasini kengaytirish, soliq imtiyozlari tizimini takomillashtirish va boshqa masalalar muhokama qilindi. Mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berildi.

O'ZA